# Ozod va obod yurtga to'ylar yarashadi



**Ozod va obod yurtga to'ylar yarashadi**

- «Prezidentimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklardan Hushyor mahalla fuqarolar yig'inidagi barcha aholi juda xursand. Men ham deputat sifatida amalga oshirilayotgan barcha ishlarda ko'zatuvchi emas, balki ishtirokchi sifatida faoliyat olib borayotganimdan mamnunman. Bugun har bir insonning ko'nglida, qalbida shu aziz Vatangu bo'lgan mehr va muhabbat jo'sh o'rishi lozim. Suxni ozod va obod hududga aylantirishga astoydil harakat qilamiz», - deydi Xalq deputatlari Sux tuman Kengashi deputati Qodirbek Amirbekov.





Suxda navbatdagi yangilik: Hushyor mahalla fuqarolar yig'inidagi yana bitta ko'cha zamonaviy

tarzda ta'mirlandi. Mahalladagi Ziyo ko'chasiga asfalьt yotqizildi. Shu munosabat bilan mahallada tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Yaxshi niyatlar bilan Hushyorlik nuroniy otaxonlar duoga qo'l ochishdi. Ha, ozod va obod, ozoda yurtga mana shunday to'ylar, tantanalar yarashadi.

**Sux tumani hokimligi Axborot xizmati**

2020-06-27 20:12:19